




O'ylab ko'ring. Sovuqdan va shamoldan odamni qanday kiyim himoya qilishi mumkin?

1. Sayyoramizdagи eng sovuq joylar qayerda joylashgan?




Yer yuzida yil bo'yи juda sovuq bo'ladigan joylar ham mavjud. Ular Shimolda va Janubda joylashgan. Quyosh nurlari sayyoramizning bu qismiga burchak ostida tushadi. Shu sababli qiya nurlar sirt ustida go'yoki "sirg'alib o'tadi" va yerni isitmaydi. Janub va Shimolda yer yuzasi har doim qorli "ko'rpa" bilan qoplangan bo'ladi.

Shimoliy qutb atrofidagi hudud Arktika deb ataladi. Arktika Shimoliy Muz okeani va undagi orollarni, bir necha qit'aning ayrim qismlarini o'z ichiga oladi.

Janubda Antarktida deb ataladigan ulkan qit'a joylashgan. Materik butunlay qalin muz qobig'i bilan qoplangan. Bo'ronli va notinch Janubiy okean Antarktida muzlariga urilib turadi.

2. Shimolda yashovchi jonivorlar



Arktikada yashovchi hayvonlar sovuq iqlim sharoitidagi hayotga moslashgan. Ularning terisi ostida sovuqdan himoya qiluvchi qalin yog' qatlami mavjud.

Oq ayiqlarning terisi yog'dan tashqari, qalin oq tuklar bilan qoplangan. Hatto ularning oyoq panjalarida ham qalin tuklar o'sadi. Ayiqlar baliq, tyulen hamda qushlar tuxumlari bilan oziqlanadi.

Shimol bug'ularining oyoqlari tekis, keng, qirralari uchli tuyoqlardan iborat. Yozda bug'ular o'tlar va butalarning barglari bilan, qishda esa qor ostidan o'zlarining sevimli bug'u moxi – zamburug'lar va bakteriyalar aralashmasini qazib olib, oziqlanadilar.



1-topshiriq.

Arktikada yashaydigan hayvonlarni belgilang.

3. Janubda yashovchi jonivorlar

Sayyoramizning eng janubida sovuq va shamolli qit'a joylashgan. Ushbu sovuq qit'adagi jonivorlar olami o'zining xilma-xilligi bilan kishini hayratga soladi.



Antarktidada pingvinlar yashaydi. Bular uchmaydigan qushlardir. Pingvinlarning butun hayoti dengiz bilan bog'liq. Dengizda ular baliq ovlaydi, qit'a qirg'oqlarida esa tuxum qo'yadi. Pingvinlarning tanasi tuklar va patlar bilan qoplangan.

Terisi ostidagi qalin yog' qatlami ularni sovuqdan saqlaydi. Ularning qanotlari va panjalari ko'proq suzgichlarga o'xshaydi. Quruqlikda pingvinlar juda qo'pol, keng oyoqlarida zo'rg'a harakat qiladilar. Ammo suvda ular tez va chaqqon harakatlanadilar.



2-topshiriq.

Antarktidada yashaydigan hayvonlarni belgilang.

4. Qutb tadqiqotchilari



Janubiy qit'ada shaharlar yo'q. Shu sababli Antarktidada faqat qutb tadqiqotchilari yashaydi.

Qutb tadqiqotchilari Shimoliy yoki Janubiy qutblarda ishlaydigan odamlardir. Ular maxsus jihozlangan stansiyalarda yashaydilar. Bular olimlar, muhandislar, oshpazlar, shifokorlar, psixologlar, meteorologlardir. Antarktidada turli mamlakatlardan kelgan mutaxassislar yashaydi va ishlaydi. Ulardan hech biri qit'ada doimiy yashamaydi.

Qutb stansiyasidagi barcha uylar qizil, ko'k, to'q sariq va shunga o'xshash yorqin ranglarga bo'yalgan. Bu ranglar qutb tadqiqotchilariga bo'ronli kunlarda o'z stansiyalarini topishga yordam beradi.



Qutb tadqiqotchilari Janubiy qutbga borishlari uchun o'zlar bilan nimalarni olishlari zarur?



Izlanish o'tkazing. Nima uchun Antarktida atrofidagi okeanlarda suv muzlamaydi? Xulosa chiqaring.